



## TA'LIM JARAYONIDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

**Qurbonova Mavjuda Muhiddinovna**

*Osiyo Xalqaro Universiteti, Psixologiya yo'nalishi magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu ishda ta'lim jarayonida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogic texnologiyalar mazmuni, ularning ahamiyati va qo'llash mexanizmlari yoritilgan. Kasbiy kompetensiya tushunchasining mazmuni, tarkibiy qismlari hamda o'qitish jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi.*

*Ishda kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim, trening va simulyatsiya, AKT asosida o'qitish hamda portfolio texnologiyalarining amaliy qo'llanishi ko'rib chiqilgan. Shuningdek, kasbiy kompetensiyalarni baholash mezonlari, rubrikalar va amaliy baholash usullari haqida ma'lumot berilgan. Mazkur material pedagoglar, magistrantlar hamda ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni qo'llovchi mutaxasssilar uchun metodik qo'llanma sifatida xizmat qiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Kasbiy kompetensiya, kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim, pedagogik texnologiyalar, amaliy mashg'ulot, muammoli ta'lim, loyihaviy o'qitish, trening, simulyatsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), portfolio texnologiyasi, soft skills, professional skills, refleksiya, baholash mezonlari, rubrika, amalga asoslangan baholash, kasbiy rivojlanish.*

**Аннотация:** *В данной работе раскрывается содержание современных педагогических технологий направленных на формирование профессиональных компетенций в образовательном процессе. Анализируется сущность и структура профессиональной компетентности её значение в подготовке будущих специалистов. Рассматриваются практические возможности применения компетентностно-ориентированного обучения проектных методов проблемного бучения тренингов симуляций а также технологий основанных на использовании ИКТ и портфолио. Кроме того представлены критерии и методы оценки профессиональных компетенций включая рубрикаторы и практико-ориентированные формы контроля. Материал может служить методическим пособием для педагогов магистрантов и специалистов внедряющих компетентностный подход в образовательный процесс.*

**Ключевые слова:** *Профессиональная коьпетентность компетентностно-ориентированное обучение педфгцигические технологии практические занятия проблемное обучение проектноецбучение тренинг симуляция инфщормациоонно – коммуникационныетехнологии (ИКТ) портфолио –технология софт скиллс профессионал скиллс рефлексия оценочные критерии рубрико практико-ориентированная оценка профессиональное развитие.*

**Annotation:** *This work explores modern pedagogical technologies aimed at developing professional competencies within the educational process. It examines the essence and structure of professional competence as well as its significfnce in preparing future specialists. The study reviews practical approaches to implementing competency –based*

*learning, project-based methods, problem – based learning , trainings , simulations, and ICT-based instructional technologies, along with portfolio development. Additionally, it presents criteria and methods for assessing professional competencies, including rubrics and practice-oriented assessment tools. The material server as a methodological resource for educators, graduate students, and specialists applying the competency-based approach in education.*

**Keywords:** *Professional competence, competency-based learning, pedagogical technologies, practical training, problem-based learning, project-based learning , training, simulation, information and communication technologies (ICT), portfolio technology, soft skills, professional skills, reflection, assessment criteria, rubrics, performance-based assessment, professional development.*

## KIRISH

Kadrlar tayyorlash tizimida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish bugungi kunda ta'limning eng ustivor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy mehnat bozori mutaxassisidan faqat nazariy bilimlarni emas, balki amaliy ko'nikmalar, mustaqil qaror qabul qilish , muammoli vaziyatlarni hal eta olish , jamoa bilan samarali muloqot qilish kabi ko'p qirrali kompetensiyalarni talab qiladi. Shu bois , ta'lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish , o'qitishning mazmuni va texnologiyalarini yangicha tamoyillar asosida takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi kunda loyihaviy o'qitish , muammoli vaziyatlarga asoslangan ta'lim, trening va simulyatsiya, AKT vositalaridan foydalanish, refleksiv yondashuv kabi texnologiyalar kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarni faollikka undaydi, ijodkorlik va tashabbuskorlikni kuchaytiradi, bilimning amaliy qo'llanishini ta'minlaydi. Mazkur ishda ta'lim jarayonida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogic texnologiyalarning mazmuni, ularning afzalliklari, qo'llash mexanizmlari hamda baholash tizimlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari pedagoglar, magistrantlar va ta'lim sifati bilan shug'illanuvchi mutaxassislar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, kompetensiyaviy yondashuvni samarali joriy etishda metodik asos bo'lib qizmat qiladi.

## ASOSIY QISM

1. Kasbiy kompetensiyalar tushunchasi va ularning tarkibi.

Kasbiy kompetensiya-bu mutaxassisning kasbiy faoliyatni samarali bajarishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, amaliy tajriba va shaxsiy sifatlarning integratsiyalashgan majmuidir. U quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1. Nazariy bilimlar- kasbga oig asosiy tushunchalar, qonuniyatlar va ilmiy yondashuvlar.
2. Amaliy ko'nikmalar- kasbiy vazifalarni real sharoitda bajarish qobiliyati.
3. Kasbiy sifatlari- mas'uliyat, tashabbuskorlik, muloqot, liderlik, stressga chidamlik.
4. Ijodiy kompetensiyalar- muammolarga noodatij yechim topish, innovatsiyalar yaratish.



5. Raqamli kompetensiyalar- AKT , onlayn platformalar, electron resurslardan foydalanish.

Zamonaviy ta’limning asosiy maqsadi ana shu kompetensiyalarni rivojlantirishdan iborat.

2.Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari.

Kasbiy kompetensiyalarning rivojlanishi zamonaviy pedagogikaning quyidagi yondashuvlariga tayanadi:

2.1. Kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuv .

Bu yondashuvda o‘qitish maqsadi an’anaviy “bilib berish” dan “amalga yo‘naltirilgan natija yaratish” ga o‘tadi. O‘quvchi ma’lum bilimga ega bo‘lishi emas, balki uni amalda qo‘llay olishi bilan baholanadi.

2.2. Fa’ol ta’lim yondashuvi.

Talaba ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiriladi. Bu metodlar jarayonda interaktivlik, muloqot, mustaqil fikrlash va ijodkorlikni ta’minlaydi.

2.3.Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv.

Har bir o‘quvchining ehtiyoji, qiziqishi, individual xususiyatlari inobatga olinadi.

3. Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda qo‘llaniladigan texnologiyalar.

3.1. Muammoli ta’lim texnologiyalari

Muammoli vaziyat yaratish orqali talabani mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga va yechim topishga undaydi. Masalan:

-tarbiyaviy muammolarni hal qilish

-iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish

-tibbiy holatlar bo‘yicha tashxis qo‘yish.

3.2. Loyihaviy o‘qitish texnologiyasi

Talabalar real hayotga yaqin loyihalar ishlab chiqadilar.Bu jarayon: jamoada ishlash, rejalashtirish va tashkilotchilik, kreativ fikrlash, mas’uliyat kabi sifatlarni rivojlantiradi.

Misollar:

-“Maktabda media markaz tashkil etish”,

-“Psixologik xizmat dasturi ishlab chiqish”,

-“Yoshlar bandligini ta’minlash bo‘yicha loyiha”.

3.3. Trening texnologiyasi

Maxsus mashg‘ulotlar orqali kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratiulgan.Treninglarda rolli o‘yinlar, munozaralar, testlar, guruhiy amaliyotlardan foydalaniladi.

3.4. Simulyarsiya texnologiyasi

Sun’iy modellashtirilgan kasbiy vaziyatlarda o‘quvchi real hayotga yaqin tajriba oladi.

Misollar:

-tibbiy simulyatorlar

-pedagoglar uchun sinf boshqaruvi simulyatsiyasi

-harbiy o‘quv mashqlari.

3.5. AKT asosida o‘qitish

Raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda qo‘l keladigan texnologiyalar:



- virtual laboratoriyalar
- onlayn platformalar
- multimediali darslar
- simulyator dasturlar.

### 3.6. Portfolio texnologiyasi

Talabaning yutuqlari, loyihalari, sertifikatlari, refleksiylari jamlanadi.

Portfolio talabaning kasbiy rivojlanishini ko‘rsatib beruvchi muhim ko‘rsatgich hisoblanadi.

### 3.7. Kouching va mentorlik texnologiyalari

Talabaga yo‘nalish, maslahat, kasbiy rivojlanish strategiyasi beriladi.

Mentor tajribasi orqali talaba tezroq rivojlanadi.

## 4. Kasbiy kompetensiyalarni baholash metodlari.

### 4.1. Performance assessment (amalga asoslangan baholash)

Talabaning haqiqiy vazifani bajarish qobiliyati tekshiriladi.

### 4.2. Rubrikalar yordamida baholash.

Aniq mezonlar asosida baholash: bilim, ko‘nikma, ijodkorlik, muloqot, mas’uliyat.

### 4.3. Test va case-study baholash.

- situation testlar

-real kasbiy holatlar asosida tuzilgan topshiriqlar.

### 4.4. Portfolio baholash.

Talabaning kompetensiya rivojlanishi tizimli ko‘rinishda baholanadi.

## 5. Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning ahamiyati.

Kasbiy kompetensiyalarni samarali shakllantirish:

- . yosh mutaxassislarning mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishi
- . kasbiy tayyorgarlik sifatining ortishi
- . amaliy ko‘nikmalarning mustahkamlanishi
- . innovatsion fikrlashning rivojlanishi
- . o‘quvchilarning motivatsiyasining oshishi kabi natijalarni beradi.

## XULOSA

Ta’lim jarayonida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish bugungi globallashtirish va raqamlashtirish va mehnat bozori talablari kuchaygan davrda alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy mutaxassis o‘z kasbiy faoliyatida nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy ko‘nikma, kommunikativ qobiliyat, ijodkorlik, tashabbuskorlik va muammolarni mustaqil hal qilish kabi keng qamrovli kompetensiyalarga ega bo‘lishi zarur. Bu esa ta’lim jarayonini innovatsion va kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishni taqozo etadi.

Muammoli ta’lim, loyihaviy o‘qitish, trening va simulyatsiya, AKT asosidagi o‘qitish, portfolio, kouching va boshqa texnologiyalar kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalar talabalarni faollikka, mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashuvga undab, reak kasbiy vaziyatlarga tayyorlaydi.

Shuningdek, kompetensiyalarni baholashning zamonaviy metodlari-rubrikalar, amaliy vazifalarga asoslangan baholash, situation testlar va portfolio bahosi – o‘quvchilarning rivojlanishini aniq va adolatli aniqlash imkonini beradi.



Umuman olganda, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish texnologiyalarini samarali qo'llash ta'lim sifatini oshishiga, malakali kadrlar tayyorlanishiga, o'quvchilarning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyati uchun mustahkam asos yaratilishiga xizmat qiladi. Shu bois, ta'lim jarayonida innovatsion, interaktiv va kompetensiyaga yo'naltirilgan texnologiyalardan keng foydalanish dolzarb va zarur hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1.Hasnboeva O, Matchonov S. Pedagogika.-Toshkent: “O'qituvchi”, 2019
- 2.Yo'ldoshev J.G, Usmonov S.A Pedagogik texnologiya asoslari.-Toshkent: “ Fan va texnologiya”, 2020.
- 3.Rajabov T. Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi.- Toshkent,2021.
- 4.Jumayev R, Jalilova D. Innovatsion ta'lim texnologiyalari.- Toshkent: “ Innovatsiya ziyo”, 2022.
- 5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “ Ta'lim tizimini rivojlantirishga doir” qarorlari va farmonlari (2017-2024 yillar).,,